

ETNOPEdagogik MATERIALLAR ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI INSONPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH

Berdimurodova Mexrubon Masudjonovna,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Pedagogika va umumiy psixologiya kafedrasida assistenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada etnopedagogik materiallardan foydalangan holda bo‘lajak o‘qituvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogic shartlari ko‘rib chiqiladi. Etnopedagogikaning ta‘lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati ta‘kidlanib, uni pedagog kadrlar tayyorlashda qo‘llashning asosiy usullari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: etnopedagogika, insonparvarlik, pedagogika, insonparvarlik, ta‘lim jarayoni.

Аннотация. В статье рассматриваются педагогические условия воспитания будущих учителей в гуманном духе с использованием этнопедагогических материалов. Подчеркивается значение этнопедагогики в образовательном процессе, выделяются основные методы ее применения в подготовке педагогических кадров.

Ключевые слова: этнопедагогика, гуманизм, педагогика, гуманизм, образовательный процесс.

Abstract. This article examines the pedagogical conditions for educating future teachers in a humane spirit using ethnopedagogical materials. The importance of ethnopedagogy in the educational process is emphasized, and the main methods of its application in the training of pedagogical personnel are highlighted.

Keywords: ethnopedagogy, humanity, pedagogy, humanity, educational process.

Kirish. Hozirgi kunda ta‘lim tizimida insonparvarlik tamoyillari muhim o‘rin tutadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash, nafaqat ularning professional mahoratini oshirish, balki jamiyatda ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashda ham muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda etnopedagogik materiallar, ya‘ni milliy an‘analar, urf-odatlar va madaniy meros, o‘qituvchilarni tarbiyalashda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Mamlakatimizda yoshlarni yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlariga ega shaxs etib tarbiyalashda o‘zbek etnopedagogika namunalariga tayangan samarali ta‘lim texnologiyalarini takomillashtirish, shuningdek bo‘lajak o‘qituvchilar ma‘naviyatini tarixiy-ma‘naviy an‘analar asosida rivojlantirish dolzarb muammo sifatida e‘tirof etilmoqda. Yangi O‘zbekistonning kelajagi va uning ravnaqi dastavval ilm fan taraqqiyoti hamda ta‘lim-tarbiyaning rivojlanishi va takomillashishi bilan belgilanadi, shu bois mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ilm-fan ta‘lim-tarbiya xamda sifatli kadrlar tayyorlash masalalariga davlatimiz siyosatining ustivor yo‘nalishi sifatida e‘tiborni qaratildi. Ayniqsa, har bir shaxsda chuqur va mustahkam bilim, teran fikr, yuksak ma‘naviyat va madaniyat ijodkorlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik kabi xislatlarni tarkib toptirishga e‘tibor kuchaydi.

Adabiyotlar tahlili. Etnopedagogika bo‘yicha olimlar xalqning ko‘p asrlik tarbiyaviy tajribasini ilmiy asosda o‘rganib, uning pedagogik ahamiyati haqida qimmatli fikrlar bildirishgan. Ularning tadqiqotlari etnopedagogikaning milliy tarbiya tizimidagi o‘rni va

zamonaviy ta'limdagi ahamiyatini yoritadi. Jumladan, Abdulla Avloniy o'zbek xalqining ma'naviyati va milliy qadriyatlarini chuqur tadqiq qilgan mashhur pedagog va yozuvchi hisoblanadi, uning fikricha, tarbiya shaxsning axloqiy, jismoniy va intellektual jihatdan shakllanishiga yordam beradi. Avloniy etnopedagogikani milliy tarbiyaning asosi sifatida ko'rgan va "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat" degan mashhur so'zlari bilan xalq tarbiyasining ahamiyatini ta'kidlagan. U xalq ertaklari, maqollar va dostonlar orqali yoshlarni tarbiyalashni juda muhim deb hisoblagan. Abdulla Avloniy o'z asarlarida ma'naviyatni tarbiya jarayonining markaziy qismiga qo'ygan. Ma'naviyat millatning ruhiy merosi va uning kelajagi uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida insonning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor beradi. Uning fikricha, tarbiya – bu insonni ma'naviy va axloqiy jihatdan shakllantirish, shuningdek, halol, vatanparvar va ma'suliyatli shaxsni yetishtirishdir.

Abu Nasr Forobiy Sharq falsafasida buyuk mutafakkir bo'lib, uning ma'naviyat haqidagi qarashlari insonning ruhiy barkamollikka erishishiga asoslangan. Forobiy insonning ma'naviy yetukligi uning aqliy va axloqiy rivojlanishi bilan bog'liqligini ta'kidlagan. Uning fikricha, eng yuqori ma'naviyat darajasi insonning bilim va donolik orqali yetuklikka erishishi hisoblanadi. Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida jamiyatdagi insonlarning ma'naviy-axloqiy xulq-atvorlari haqida chuqur mulohazalar bildiradi.

Imom al-G'azoliy islom olamida ma'naviy tarbiya va axloqshunoslik sohasida katta hissa qo'shgan. U o'zining mashhur "Ihyou Ulum ad-Din" (Diniy bilimlarni qayta tiklash) asarida ma'naviy kamolot va insonning ichki dunyosini poklashga katta ahamiyat bergan. G'azoliy insonning qalbini poklash, sabr, halollik va shukr qilish kabi fazilatlarini rivojlantirish orqali ma'naviy yetuklikka erishish mumkinligini aytadi. Uning tadqiqotlari insonning ichki dunyosini o'rganishga bag'ishlangan.

Alisher Navoiy o'z ijodida ma'naviyat va axloqiy yetuklikni asosiy mavzulardan biri sifatida ko'rsatgan. Uning asarlarida ma'naviyat insonning o'zini anglash, jamoat manfaatlarini o'z shaxsiy manfaatlaridan ustun qo'yish va ruhiy poklikka erishish kabi g'oyalar bilan bog'langan. Navoiy inson ma'naviyati o'zligini anglash va pok qalbga ega bo'lish bilan bog'liq deb ta'kidlaydi. Uning "Mahbub ul-Qulub" asari ma'naviyat va axloq haqidagi chuqur fikrlarni o'z ichiga oladi

Tadqiqot metodologiyasi. Etnopedagogika fanining metodologik asosini Prezidentimiz asarlarida olg'a surilgan milliy, madaniy merosni asrab-avaylash, ularni o'rganish, yanada boyitib kelajak avlodlarga meros qoldirish haqidagi fikrlar; falsafaning jamiyat, shaxs, ong va ularni tarbiya vositasida o'zgartirish mumkinligi haqidagi qonuniyatlari; buyuk ajdodlarimizning pedagogik qarashlari; komil insoni tarbiyalash, shakllantirish va rivojlantirishga dior diniy ta'limotlar tashkil etadi.

Tahlillar va natijalar. Etnopedagogika ko'p asrlar davomida shakllangan xalqning tarbiyaviy tajribasini o'zida mujassam etgan, milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analar

orqali bolalar va yoshlarni tarbiyalash tizimi hisoblanadi. Etnopedagogika xalqning madaniy, ijtimoiy va axloqiy hayotini aks ettirib, uning ma'naviy merosi sifatida avlodlardan avlodga uzatiladi. Zamonaviy ta'lim tizimida etnopedagogikaning ahamiyati katta bo'lib, u yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashga va ularni barkamol shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Etnopedagogika manbalari tizimi (afsonalar, rivoyatlar, dostonlar, qo'shiqlar, aytishuvlar, tortishuvlar, allalar, yallalar, topishmoqlar, maqollar, matallar, o'lanlar, madhiyalar, marsiyalar, marosim, aytimlari, xalq o'yinlari va b.)ni ko'zdan kechirganimizda yuqoridagi fikrlarning to'g'riligi ayon bo'ladi. Chunonchi, barcha manbalarda, agar ular musulmon dini tarqalgan hududlarda yaratilgan bo'lsa, etnopedagogik asarlar qahramonlari diniy tushunchalarga ishonadi, shariat qonunlaridan chetga chiqmaydi, milliy tarbiya sifatlariga ega bo'ladi. Etnopedagogikaning barcha manbalarida tasvirlangan pedagogik fikrlarda, qahramonlar dunyoqarashlarida inson barcha hayotiy muammolarni, orzu-umidlarini faqat ilm-ma'rifatni ega qilish, ezgu amallar, mehnat va yaratuvchilik, do'stlik va hamkorlik, go'zal ma'naviy-axloqiy sifatlarni egallash yordamida amalga oshirish mumkinligi haqidagi g'oya olg'a suriladi. Shuning uchun bugungi milliy istiqlol davrida xalq pedagogikasi durdonalarini o'rganish g'oyat muhimdir. Etnopedagogika bo'lajak o'qituvchilarda madaniy xilma-xillikni hurmat qilish va tushunishni rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamlı ta'lim texnologiyalarini qamrab oladi. Bu empatiya, bag'rikenglik va o'zaro tushunishni rivojlantirishga yordam beradi.

Etnopedagogikaning ma'naviyatni rivojlantirishdagi o'rni shundaki, u yosh avlodni milliy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar, ijtimoiy munosabatlar bilan tanishtiradi va ularga rioya qilishni o'rgatadi. Bu o'qituvchi kasbini tanlagan yoshlar uchun nafaqat kasbiy tayyorgarlik, balki shaxs sifatida ham shakllanishlarida muhim ahamiyatga ega. Etnopedagogika bo'lajak o'qituvchilarni o'zligini anglash, milliy ma'naviyatni qadrlash va uni saqlab qolishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

Etnopedagogika bo'lajak o'qituvchilar uchun ijtimoiy va pedagogik jihatdan zarur hisoblanadi, chunki u milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish orqali ma'naviy rivojlanishga zamin yaratadi. Bu pedagogika turi xalqning hayotiy tajribalarini, urf-odatlarini va ma'naviy qadriyatlarini avlodlarga o'rgatadi. Bo'lajak o'qituvchilar etnopedagogika orqali jamiyatda ijtimoiy mas'uliyatni angelaydi va o'z kasbiy faoliyatida axloqiy me'yorlarga amal qiladi. Etnopedagogika ularning tarbiyachilik mahoratini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Etnopedagogik materiallar bo'lajak o'qituvchilarga o'z xalqining tarixini, madaniyatini va qadriyatlarini o'rganish imkonini beradi. Bu orqali ular o'z xalqining an'alariga hurmat bilan qarashni, ulardan saboq olishni o'rganadilar. Masalan, xalq og'zaki ijodidan, maqollardan va hikoyatlardan foydalanish, talabalarga insoniylik, mehr-oqibat, samimiyat kabi qadriyatlarni singdirishda muhim rol o'ynaydi. Etnopedagogik materiallar orqali o'qituvchilar o'z darslarida milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi misollar keltirib, o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishlari

mumkin. Bundan tashqari, etnopedagogik materiallar bo'lajak o'qituvchilarga ijtimoiy adolat, tenglik va inson huquqlari kabi universal insonparvarlik tamoyillarini o'rganishga yordam beradi. Milliy qadriyatlar va an'analar orqali o'rganilgan insoniylik tushunchalari, o'quvchilarga bir-biriga nisbatan mehribonlik, sabr-toqat va hurmat ko'rsatishni o'rgatadi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Bo'lajak o'qituvchilarni etnopedagogika vositasida ma'naviyatini rivojlantirish ko'pincha oila tarbiyasida namoyon bo'ladi, chunki oilada shakllangan tarbiyaviy muhit bolaga ilk tarbiya beradigan birinchi maskan hisoblanadi. O'zbek xalqida oila qadriyatlari juda muhim o'rin egallaydi. Ota-onalar va katta avlodning tajribasi, odobi va axloqi avlodlardan-avlodga o'tib, oilaning umumiy tarbiyaviy muhitini shakllantiradi. Etnopedagogikaning oilada qo'llanilishi farzandlarning milliy qadriyatlarni erta yoshdan o'zlashtirishiga yordam beradi. Shuningdek, bu tarbiya bolaning jamiyatdagi axloqiy normalarini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. Insonparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni faol ishtirok etishga undash zarur. Ular etnopedagogik materiallardan foydalanib, darslarni interaktiv tarzda o'tishlari, guruhli ishlar tashkil etishlari va talabalarning fikrlarini tinglashlari kerak. Bu nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki o'quvchilarda o'z fikrini ifoda etish va boshqalar bilan muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashda ota-onalar va jamoatchilik bilan hamkorlik qilish muhimdir. Ota-onalar va jamiyat vakillari bilan birgalikda turli tadbirlar o'tkazish, an'anaviy bayramlarni nishonlash va ma'rifiy loyihalarda ishtirok etish orqali bolalar va yoshlarda insonparvarlik qadriyatlarini shakllantirish mumkin. Bu jarayon, shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirishga ham yordam beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, etnopedagogik materiallar asosida bo'lajak o'qituvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash – bu zamonaviy ta'lim tizimining muhim jihatlardan biridir. Milliy an'analar va madaniyatni o'rganish orqali o'qituvchilar nafaqat professional bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar, balki insoniylik, mehr-oqibat va vatanparvarlik kabi muhim qadriyatlarni ham singdiradilar. Bu esa kelajak avlodni tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi va jamiyatimizda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kamolova Sh.O'. Shaxs kamoloti bosqichlari va ularga mos dunyoqarashning shakllanishi // Sog'lom avlod uchun. – Toshkent, – 2008. No 12.–B. 10-11.
2. Волков Г.Н., Конашов И.С. Этнопедагогика: Теория и практика // Изд. дом «Образование», 2020.
3. Смирнова Е.П. Этнопедагогика как инструмент гуманизации образования // Научные исследования в образовании, 2019, №4, стр. 135-142.
4. Иванова Т.В. Культурные традиции в воспитании молодого поколения // Педагогическое наследие, 2021, №3, стр. 75-82.